




TOSHKENT SHAHRIDA OLIY TA'LIM TIZIMI



Oliy ta'lim bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalvriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalvriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalvriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.



Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlikda
(2020/2021-o'quv yili boshida)



Toshkent shahridagi oliy ta'lim tizimida, oliy harbiy ta'lim tashkilotlaridan tashqari, 4 ta akademiya, 27 ta universitet va 1 ta oliy diniy ta'lim tashkilotlari va filiallarini o'z ichiga olgan 51 ta oliy ta'lim tashkiloti mavjud.

2020/2021 o'quv yilining boshida Toshkent shahridagi oliy o'quv yurtlari soni o'tgan o'quv yilining mos davriga nisbatan 3 taga (6,2%) ko'paydi.



Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



147.3

2019 yil

185.5

2020 yil



2020/2021 o'quv yilining
boshida oliy o'quv yurtlarida jami
185,5 ming talaba tahsil oladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



ayollar

40,9%



2020/2021 o'quv yilining boshida oliy o'quv yurtlarida 185,5 ming talaba tahsil olmoqda, ulardan 76,0 ming nafari (40,9%) ayollar va 109,6 ming nafari (59,1%) erkaklardir.



erkaklar

59,1%



**Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi
bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**




| Yoshi bo'yicha jami | 185,5 |
|---------------------------------|--------------|
| 17 yosh va undan kichik | 3,4 |
| 18 yosh | 15,6 |
| 19 yosh | 22,0 |
| 20 yosh | 23,7 |
| 21 yosh | 23,8 |
| 22 yosh | 22,1 |
| 23 yosh | 18,3 |
| 24 yosh | 14,0 |
| 25 yosh | 10,0 |
| 26-29 yosh | 18,5 |
| 30-34 yosh | 7,8 |
| 35-39 yosh | 4,4 |
| 40 yosh va u undan katta | 2,0 |

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



jjjj



✓ 2020/2021 o'quv yilining boshida oliy talim tashkilotlariga 53,7 ming talaba qabul qilindi. O'tgan o'quv yilining tegishli davriga nisbatan talabalar soni 4,3 ming kishiga ko'paygan.



Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirganlar soni, (2020- yil, ming kishi)



2020 yilda Toshkent shahridagi oliy o'quv yurtlarini 26,1 ming talaba tugatgan, ulardan ayollar - 8,3 (31,9%) va erkaklar - 17,8 (68,1%).

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari soni, ming kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



✓ 2020/2021- o'quv yili boshida Toshkent shahri oliy ta'lim tashkilotlarida jami 11,6 ming nafar professor-o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 5,7 ming nafari ayollar (49,6 %) ni tashkil etsa, 5,8 ming nafari erkaklar (50,4 %) dan iborat.

Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlikda (o'quv yili boshida)



✓ Tashkent shahrida 2020/2021- o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni 51 tani tashkil etib, jami oliy ta'lim tashkilotlari sonidan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari 14 tani tashkil etdi.